

**SHARQ MUTAFFAKIRLARNING ASARLARIDA SO'Z-MANTIQ
TAFAKKURI TO'G'RISIDAGI PSIXOLOGIK
QARASHLARNING ILMIY TAHLILI**

Azamova Xumora Ilyosjonovna

Magistr

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Farg'ona shahar O'zbekiston respublikasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada so'z, mantiq va tafakkur insonning aqliy hamda ma'naviy rivojlanishidagi o'rni, ularning o'zaro bog'liqligi va maktabgacha yoshdagi bolalar taraqqiyotiga ta'siri yoritiladi. Sharq mutafakkirlari — Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, G'azzoliy, Ibn Sino va Ahmad Yassaviy qarashlari asosida so'zning tarbiyaviy va ma'naviy kuchi, tafakkurning aqliy yetuklikdagi roli va mantiqning fikrni tartibga solishdagi vazifasi tahlil qilinadi. Tadqiqot bolalarda so'z boyligi, tafakkur va mantiqiy fikrlashning shakllanishi jarayonini sharhlab, Sharq falsafasi merosining pedagogik ahamiyatini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: Tafakkur, so'z, so'z-mantiq, fikrlash, tarbiya, aql, ma'naviy idrok.

Аннотация: В данной работе раскрывается роль слова, логики и мышления в умственном и духовном развитии человека, а также их взаимосвязь и влияние на развитие детей дошкольного возраста. На основе взглядов восточных мыслителей — Алишера Навои, Джалолиддина Руми, Абу Хамида Газзали, Ибн Сины и Ахмада Яссави — анализируются воспитательная и духовная сила слова, значение мышления в формировании интеллектуальной зрелости и роль логики в упорядочении мыслительного процесса. Исследование объясняет формирование словарного запаса, мышления и логико-мыслительных навыков у дошкольников, обосновывая педагогическое значение восточного философского наследия.

Ключевые слова: Мышление, Слово, Словесно-логическое мышление,

Мышление, Воспитание, Разум, Духовное восприятие

Abstrakt: *This paper explores the role of words, logic, and thinking in human intellectual and spiritual development, as well as their interrelation and influence on the development of preschool children. Based on the views of Eastern thinkers — Alisher Navoi, Jalaluddin Rumi, Abu Hamid Ghazali, Ibn Sina, and Ahmad Yassawi — the study analyzes the educational and moral power of words, the significance of thinking in achieving intellectual maturity, and the function of logic in organizing thought processes. The research explains how vocabulary, thinking, and logical reasoning skills develop in preschool children, highlighting the pedagogical value of Eastern philosophical heritage.*

Keywords: *Thinking, Word, Verbal-logical reasoning, Cognitive processing, Upbringing, Intellect, Spiritual perception*

Soʻz, mantiq va tafakkur inson aqliy faoliyati va psixologik rivojlanishining asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Tafakkur insonning fikrlash quvvati boʻlib, u orqali haqiqatni idrok etadi, bilim va tajribani tizimlashtiradi. Soʻz esa tafakkur mahsulini ifodalaydigan vosita sifatida xizmat qiladi; mantiq esa tafakkur va soʻz oʻrtasidagi bogʻliqlikni tartibga soluvchi ilmiy tizimdir.

Psixologiya va pedagogika sohalarida maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkur, soʻz va mantiqiy fikrlash rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Shu yosh davrda bolalar sezgi, kuzatuv, muloqot va oʻyin orqali tafakkurini shakllantiradi, soʻz boyligini oshiradi va mantiqiy fikrlash asoslarini oʻrganadi. Bu esa ularning kelajakdagi intellektual va maʼnaviy rivojlanishi uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Sharq mutafakkirlari, jumladan, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Abu Homid Gʻazzoliy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino va Ahmad Yassaviy, soʻz, tafakkur va mantiqni inson ruhiy va aqliy kamolotining ajralmas qismi sifatida koʻrsatganlar. Ularning asarlarida tafakkur aqlning oliy faoliyati, soʻz tafakkur mahsuli va mantiq tafakkur va soʻzni tartibga soluvchi vosita sifatida talqin etilgan. Shu nuqtai nazardan, bu mutafakkirlarning nazariy ishlari maktabgacha yoshdagi bolalarda

soʻz va tafakkur rivojlanishini oʻrganish uchun ilmiy asos boʻlib xizmat qiladi.

Sharq adabiy-falsafiy tafakkurining eng yirik namoyandalaridan biri Alisher Navoiy (1441–1501) boʻlib, usiz oʻzbek til va adabiyotini tasavvur qilib boʻlmaydi. U turkiy til olamining eng buyuk, yorqin namoyondasidir. Uning asarlarida soʻz, nutq, tafakkur, aql va maʼnaviy tarbiya oʻzaro bogʻliq holda yoritiladi. U oʻz asarlarida 16000dan ortiq soʻzlardan foydalanganligi haqidagi maʼlumot ham unung soʻz haqida qanchalar chuqur bilimga, keng tafakkurga ega ekanligini koʻrsatadi. A.Navoiy uchun soʻz, bu shunchaki aloqa vositasi emas, balki inson tafakkurining ifodasi va aql kamolotining oʻlchovidir. A.Navoiy soʻzning tarbiyaviy, mantiqiy va maʼnaviy qudratini chuqur anglagan. Shu sababli, uning qarashlari bugungi psixologiya, ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalarda soʻz va tafakkur rivoji masalasida gʻoyat dolzarbdir.

A.Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida shunday deydi: “Soʻz insonning gavharidir, soʻz ila bilinar aqlu farosat.” Bu fikrga koʻra, insonning ichki dunyosi, aqliy yetukligi va tafakkur darajasi uning soʻzlash uslubida namoyon boʻladi. Demak, soʻz va tafakkur bir butun jarayondir. Soʻzning goʻzalligi bu fikrning tozaligidan, fikrning tozaligi esa ruhiy kamolotdan kelib chiqadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ham soʻz boyligi, fikrni izchil bayon eta olish qobiliyati ularning tafakkur bosqichini koʻrsatadi. Navoiy taʼlimotidan kelib chiqib aytish mumkinki, bola nutqi uning tafakkur darajasining oynasidir.

Navoiy soʻzni faqat til unsuri sifatida emas, balki axloqiy va mantiqiy masʼuliyat sifatida ham talqin qiladi. U “Mahbub ul-qulub” asarida ogohlik bilan ogʻiz ochish, soʻzni joyida ishlatish haqida yozadi:

“Soʻzni soʻzlaganda oʻlchov ila soʻzla,

Chunki soʻz yo najot, yo halokat manbaʼidir.”

Bu gʻoya shuni bildiradiki, soʻz inson tafakkurining kuchini ifoda etadi, lekin notoʻgʻri yoki nooʻrin soʻzlash fikrlashni buzadi, aqliy tartibni buzadi. Bundan koʻrinib turibdiki soʻz orqali biz bolalarni jazolashimiz, taqdirlashimiz, ularni yuksaltirishimiz yokida aksincha, halokat yoqasiga olib kelishimiz ham mumkin ekan. Bola nutqini oʻstirishda unga “soʻz masʼuliyati”ni oʻrgatish yaʼni soʻzning

to'g'riligiga, ma'nosiga, intonatsiya (ohang) siga e'tibor qaratish uning mantiqiy tafakkurini shakllantirish uchun muhim psixologik hisoblanadi.

Buyuk mutasavvif, faylasuf va shoir Jaloliddin Rumiy (1207–1273) o'zining bir qancha nodir asarlarini meros qilib qoldirgan. U o'zining “Masnaviyi ma'naviy”, “Fihi ma fihi”, “Maktubot” kabi asarlarida inson tafakkuri, nutq madaniyati va ma'naviy kamolot masalalarini chuqur falsafiy jihatdan tahlil qilgan. J.Rumiy o'z asarlarida so'zni faqat muloqot vositasi emas, balki ruh va tafakkur o'rtasidagi ilohiy ko'prik sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, so'z tafakkurning ovozi, tafakkur esa so'zning ildizidir. Shunday qilib J.Rumiy so'z, mantiq va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlik inson ruhiy taraqqiyotining asosi sifatidagi qarashlarini yozib qoldirgan.

J.Rumiyning “Masnaviy ma'naviy” asarida so'z insonning ichki dunyosini ochuvchi ilohiy nur sifatida tasvirlanadi. U shunday yozadi: “So'z ruhdan chiqadi, agar u toza bo'lsa, yurakni yoritadi; agar qorong'ilikdan chiqsa, yurakni to'sadi.” Bu fikr orqali J.Rumiy so'zning ruhiy va tafakkuriy manbaini ko'rsatadi: so'zning kuchi uning ichki ma'naviy tozaligiga bog'liq. Inson tafakkuri so'z orqali nurlanadi, tozalangan so'z esa tafakkurni yuksaltiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z va fikr o'rtasidagi bog'liqlik asta-sekin shakllanadi. Agar bola so'zlarni his-tuyg'u bilan, ma'nosini anglab aytsa, u tafakkur faoliyatini chuqurroq rivojlantiradi.

Shuningdek J.Rumiy o'z ta'limotida so'zni his va fikrni birlashtiruvchi vosita sifatida talqin qiladi. J.Rumiy so'zning tashqi shakliga emas, balki uning ichki ma'nosi va ruhiy mohiyatiga e'tibor qaratadi. J.Rumiy “Masnaviy”da “So'zlar faqat izohdir, ma'no esa ichkarida yashirin.” - deb yozgan. Bu yerda u tafakkur jarayonini “mazmunni qobiqdan ajratish” sifatida tasvirlaydi. Tafakkur so'zdagi yashirin ma'noni anglash, uni mantiqan va hissiy jihatdan idrok etishdir deb biladi. Bolalarda ham tafakkur jarayoni shu tarzda kechadi, bola avval so'zning tashqi shaklini (tovush, talaffuz), keyin esa uning ma'nosini o'zlashtiradi. Shu sababli, so'z boyligi bilan bir qatorda so'z ma'nosini tushunish tafakkur rivojining asosiy belgilaridan biridir. Tafakkur ilohiy idrok, so'z uning ifodasidir.

Imom Abu Homid G'azzoliy musulmon falsafasi va tasavvufning buyuk

namoyandasi sifatida inson tafakkuri, aqli va soʻz madaniyatining mohiyatini chuqur tahlil qilgan buyuk olimlardan biridir. Unga qarashlariga koʻra, tafakkur insonni hayvondan ajratib turuvchi eng oliy neʼmat, soʻz esa tafakkurning ifodasi va ijtimoiy shaklidir. Imom Gʻazzoliy nazarida tafakkur ruhiy va aqliy jarayonning birligi, tafakkur insonni haqiqatni anglashga olib boradi. Soʻz esa tafakkurning aks-sadosi sifatida bu jarayonni tashqi shaklga oʻtkazadi deb taʼkidlagan.

Imom Gʻazzoliy “Ihyo ulum ad-din” asarining “Tafakkur kitobi”da shunday yozadi: “Tafakkur qalbning koʻzidir. U orqali inson nurni koʻradi, jaholat zulmatidan najot topadi.” Bu fikrda tafakkur nafaqat aqliy, balki maʼnaviy idrok sifatida talqin qilinadi. Tafakkur insonni maʼrifatga olib boradi, u orqali inson soʻz, amal va niyatni toʻgʻri yoʻlga soladi. Bola tafakkurining rivojlanishida ham “qalb koʻzi” degan tushuncha uning ichki sezgi, qiziqish va idrok kuchidir. Maktabgacha yoshdagi bola oʻylar oʻynash, ertaklar oʻrganish jarayonida u nafaqat aql bilan, balki his-tuygʻu orqali ham fikrlaydi. Bu Imom Gʻazzoliy taʼlimotining zamonaviy psixologiya bilan uygʻunligini ifodalovchi jihatidir.

Abu Ali Ibn Sino oʻrta asr Islom falsafasining eng buyuk olimlaridan biri, tibbiyot, falsafa, mantiq va psixologiya sohalarida asarlar yaratgan buyuk olimdir. Uning “Kitab al-Shifa” (Shifo Kitobi) va “Kitab al-Najat” asarlarida inson tafakkuri, aql va soʻzning oʻzaro aloqasi chuqur tahlil qilingan. Ibn Sino uchun tafakkur – inson ruhining eng oliy faoliyati, soʻz esa tafakkur mahsulini ifodalaydigan vosita, mantiq esa tafakkur va soʻz tartibini belgilovchi ilmiy tizimdir.

Ibn Sino “Kitab al-Shifa”da shunday yozadi: “Tafakkur aqlning faoliyatidir, u orqali inson haqiqatni anglaydi va bilimga erishadi. Aql insonni hayvonlardan ajratadi, tafakkur esa uning oliy darajasi hisoblanadi.” Uning fikrlarini bolalar tafakkuri jarayonida talqin qiladigan boʻlsak, tafakkur sezgi va tajriba orqali rivojlansa-da, soʻz orqali shakllanadi. Ibn Sino nazariyasi bolalarning aqliy va nutqiy rivojlanishini tushunishda pedagogik asos boʻlib xizmat qiladi. Ibn Sino soʻzni tafakkur natijasi va ruhiy holatning tashqi koʻrinishi deb hisoblaydi. Olim soʻz va tafakkurni bir biri bilan bogʻlab, “Soʻz tafakkur mahsulidir; toza va aniq tafakkur toza va aniq soʻzga olib keladi. Soʻz notoʻgʻri boʻlsa, tafakkur ham

buzilgan bo'ladi.”- deb izohlagan.

Demak soʻz va tafakkur bir-birini rivojlantiradi. Soʻz orqali inson fikrini tashqi muhitga chiqaradi va mantiqiy fikrlashni oʻrganadi. Mantiq esa tafakkur va soʻzni tartibga soluvchi vositadir. Ibn Sino mantiqni aql va soʻzni boshqaruvchi ilm deb atadi. “Mantiq tafakkur va soʻzning tartibini saqlaydi, xato fikr va notoʻgʻri soʻzlashning oldini oladi. U tafakkur va soʻzni mukammallashtiradi.” Maktabgacha yoshdagi bolalarda aynan mantiqiy fikrlashni oʻrgatish soʻz boyligini oshirish va tafakkurini tartibga solishda muhim sanalishini yuqoridagi fikrlardan tushunishimiz mumkin.

Ahmad Yassaviy turkiy tasavvuf falsafasining peshqadami. Uning “Hikmat” asari juda ham mashxur asarlardan hisoblanib, biz uchun muhim ilmiy manbalardan biri sanaladi. Uning asarlari bolalarga, yosh avlodga, jamiyat aʼzolariga axloqiy, maʼnaviy va tafakkuriy tarbiyani oʻrgatish jihatidan juda boydir. Yassaviy uchun soʻz, tafakkur va mantiq faqat intellektual faoliyat vositasi emas, balki ruhiy va axloqiy kamolot asosidir.

A.Yassaviy “Hikmat” asarida shunday yozadi: “Tafakkur bilan oʻylab, qalbni poklash har bir insonning vazifasidir. Fikrni toza saqlash, soʻzni toza chiqarish ruhni yuksaltiradi.” Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur sezgi va kuzatuv orqali shakllansa-da, axloqiy va ruhiy rivojlanishda soʻz orqali boyitiladi. A.Yassaviy nazariyasi tafakkur va ruhiy tarbiya oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni koʻrsatadi. A.Yassaviy soʻzni qalbning tashqi ifodasi deb hisoblaydi: “Toza soʻz qalbning yorugʻligini koʻrsatadi. Soʻz notoʻgʻri boʻlsa, qalb ham zulmatda qoladi.”

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni oʻrgatish soʻz boyligini kengaytiradi va tafakkur faoliyatini tartibga soladi. Yassaviy taʼlimotida mantiqiy fikr ruhiy va axloqiy rivojlanish bilan uzviy bogʻliq. Yassaviy soʻzning nafaqat mantiqiy, balki axloqiy va maʼnaviy rolini taʼkidlab “Soʻz qalbning ifodasi, soʻz orqali inson oʻzini tanir, oʻzini boshqara oladi”-deydi. Bolalar soʻz orqali tafakkurini tartibga soladi va axloqiy tushunchalarni oʻzlashtiradi. A.Yassaviy nazariyasi bolalarga axloqiy va ruhiy tarbiya berishda metodik asos boʻla oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda Yassaviy taʼlimoti shuni koʻrsatadiki, soʻz va

tafakkur uyg'un rivojlanishi bolaning ruhiy va aqliy rivojlanishi uchun mustahkam poydevor hisoblanadi.

Adabiyotlar

- 1 A.Navoiy "Xamsa" Toshkent G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyot 1991 y
- 2 J.Rumi "Masnaviyi ma'navi" Texron Oruj press 2001y
- 3 J.Rumi "Fihi ma fihi" Texron Oruj press 2001y
- 4 A.H.G'zzoliy "Ithou ulumid-din" Toshkent Movaraunnaxr 2007y
- 5 Ibn Sino "Kitob al-Shifa"
- 6 A.Yassaviy "Hikmatlar" Toshkent G'.G'ulom nashriyoti 1991y